

**GIDROGEOLOGIYA VA INJENERLIK GEOLOGIYASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/2025.27.12.GM.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
QORAQALPOG‘ISTON BO‘LIMI QORAQALPOQ TABIIY FANLAR
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ISKENDEROV BAXTIYAR KAUENDEROVICH

**NUKUS TUMANI SHO‘RLANGAN GRUNTLARIDA BINO VA
INSHOOTLAR POYDEVORLARINI LOYIHALASHNING O‘ZIGA
XOSLIKLARINI MUHANDIS-GEOLOGIK ASOSLASH**

04.00.04- Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi

**TEXNIKA fanlari bo‘yicha falsafa dokroti (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Iskenderov Baxtiyar Kauenderovich

Nukus tumani sho‘rlangan gruntlarida bino va inshootlar
poydevorlarini loyihalashning o‘ziga xosliklarini

muhandis-geologik asoslash.....3

Искендеров Бахтияр Кауендерович

Особенности инженерно-геологического обоснования по проектированию
фундаментов зданий и сооружений на засоленных грунтах

Нукусского района.....21

Iskenderov Baxtiyar Kauenderovich

Features of engineering and geological justification for designing the
foundations of buildings and structures on saline soils of the Nukus

district.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**GIDROGEOLOGIYA VA INJENERLIK GEOLOGIYASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/2025.27.12.GM.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
QORAQALPOG‘ISTON BO‘LIMI QORAQALPOQ TABIIY FANLAR
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

ISKENDEROV BAXTIYAR KAUENDEROVICH

**NUKUS TUMANI SHO‘RLANGAN GRUNTLARIDA BINO VA
INSHOOTLAR POYDEVORLARINI LOYIHALASHNING O‘ZIGA
XOSLIKLARINI MUHANDIS-GEOLOGIK ASOSLASH**

04.00.04- Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi

**TEXNIKA fanlari bo‘yicha falsafa dokroti (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/T6313. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog'iston tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbekcha, ruscha va inglizcha (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.hydroengeo.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Aimbetov Izzet Kallievich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Rasulov Rustam Xayatovich
texnika fanlari doktori, professor

Tulyaganov Baxodirjon Ismailovich
geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi,
katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:


Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Hidrogeologiya va injenerlik geologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/2025.27.12.GM.05.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026 yil «3» mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100041, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy. Tel.: (+99871) 262-75-92; faks: (+99871) 262-62-15, e-mail: gidro_ilmkeng@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Girogeologiya va injenerlik geologiyasi institutining Axborot-resurslar markazida tanishish mumkin (65 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64-uy. Tel.: (+99871) 209-10-79; faks: (+99871) 209-10-79; e-mail: gidro_ilmkeng@mail.ru.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «16» fevral kuni tarqatildi.

(2026 yil «16» fevraldagi 14 - raqamli reyestr bayonnomasi)



A.A.Mavlonov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d., k.i.x.

M.R.Jurayev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
g.-m.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD), k.i.x.

I.X.Xabibullayev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi bir martalik
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi gruntlarning taxminan 25 foizi yuqori darajada sho'rlangan bo'lib, bu holat, asosan, qurg'oqchil iqlim sharoitiga ega hududlarda ko'zatilmoqda. So'nggi yillarda qurg'oqchilik hodisalarining tez-tez takrorlanishi gruntlarning sho'rlanish jarayonini ko'chaytirmoqda. Natijada, butun dunyo miqyosida sho'rlanish muammosi turli sohalarda, shu jumladan muhandislik geologiyasi va qurilish sohasida alohida e'tiborni jalb qilmoqda. Muhandislik yechimlari bo'yicha bino va inshootlar qurilishining ortib borishi, bu tabiiy sharoitlarga muvofiq tarzda amalga oshirish usullari bo'yicha eng maqbul loyihaviy yechimlarni tanlash, muhandislik-geologik izlanishlarga oid loyihalarni tuzish masalalari jahonning rivojlangan mamlakatlarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda bino va inshootlar poydevorini loyihalashda muhandislik-geologik asoslash masalalari, xususan, sho'rlangan grunlarda qurilishning mustahkamligi va chidamliligini ta'minlash, tuzlarning grunt va qurilish materiallariga ta'sirini baholash hamda agressiv muhitdan himoya qilish usullarini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda sho'rlangan grunlarda inshootlarni puxta loyihalash, optimal poydevor turlarini tanlash va ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamiz hududida qurilayotgan bino va inshootlar poydevorini loyihalashda muhandislik-geologik va gidrogeologik sharoitlarni chuqur o'rganishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilib, ushbu yo'nalishlarda muayyan natijalarga erishilmoqda. «Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada sho'rlangan va murakkab gruntlarga ega hududlarda ilmiy izlanishlar olib borish, poydevorlarning barqarorligini ta'minlash, konstruksiyalarni agressiv muhitdan himoya qilish, qurilish ishlarini xavfsiz rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son «Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish to'g'risida», 2025 yil 13 oktyabrdagi PF-183-son «Suv sohasini raqamlashtirish jarayonini yanada jadallashtirish va barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2025 yil 27 yanvardagi PF-11-son «Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi «O'zbekiston 2030» Strategiyasi to'g'risidagi PQ-158 sonli Farmoni.

rivojlantirishning VIII “Yer fanlari (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyoni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sho‘rlangan tuproqlarda bino va inshootlar qurish muammolarini hal qilishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar dunyoning taniqli ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari tomonidan keng o‘rganilgan. Jumladan: tuzlarni gruntlarning fizik-mexanik xossalari ta‘sir qilishi va tuzlar yer osti beton konstruksiyalarini vaqtidan oldin yemirilishi bo‘yicha masalalar bilan xorijiy davlatlarning Alonso E.E., Olivella S., Agudo E., Mees F., Jacobs P., Angeli M., Bigas J.P., Benavente D., Cheng J., Shen J., Du R. va Francisca F.M., A.Monshi, B.B.Bakenov, N.V.Boyko, U.R.Djumashev, Z.G.Ter-Martirosyan, V.P.Petruxin kabi olimlari va muhandis-geologlari shug‘ullanganlar. O‘zbekistonda G.A.Mavlyanov, Ye.D.Rojdestvenskiy, L.B.Smolina, S.M.Kasymov, I.K.Aimbetov, A.D.Kayumov, L.Z.Sherfedinov, I.A.Agzamova, R.M.Xudoykulov va boshqalar tomonidan olib borilgan, tadqiqotlar natijasida Qoraqalpog‘iston hududi uchun muhandis geologik va gidrogeologik sharoitlarni modellashtirish texnologiyasi ishlab chiqilgan, hududining sho‘r gruntlarida bino va inshootlar poydevorlarni loyihalash mezonlari belgilangan.

Qoraqalpog‘istonning shimoliy hududlarida joylashgan sho‘rlangan gruntlarning muhandislik-geologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan ayrim tadqiqot ishlarida sho‘rlanish darajasi, sho‘rlanish turi hamda gruntlarning fizik-mexanik xususiyatlarini ifodalovchi xarita-sxemalar ishlab chiqilgan. Biroq Nukus tumani misolida olib borilgan mavjud muhandislik-geologik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tuman hududi doirasida zamonaviy kompyuter texnologiyalariga asoslangan mufassal tizimli tadqiqotlar hamda binolarning cho‘kishini tabiiy sharoitda kuzatish ishlari olib borilmagan. Bu borada tadqiqot hududini muhandislik-geologik xususiyatlarini va yer osti suvlari holati o‘zgarishini baholash, gruntlarning fizik-mexanik xossalari aniqlash, maydonni muhandislik-geologik rayonlashtirish, qurilishlar poydevorini muhandislik-geologik asoslash uchun qulaylik darajasi bo‘yicha xududni rayonlashtirish mazkur masalalarni yechishga imkon beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq tabiiy Fanlar ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Qoraqalpog‘iston gruntlarning fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganish, Qoraqalpog‘istonning sho‘rlangan gruntlarida bino va inshootlar qurish uchun muhandislik-geologik asoslarni yaratish" (2021-2024 y.y.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog‘istonning Nukus tumani gruntlarining sho‘rlanishi, yer osti suvlari va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda poydevorlarni loyihalashni muhandislik-geologik rayonlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: fond materiallarini to‘plash, ularni tizimlashtirish va Nukus tumani gruntlarining sho‘rlanishi, grunt suvlari va gruntlarning muzlash chuqurligi bo‘yicha bir qator sxematik GAT xaritalarini tuzish;

Nukus tumani muhandislik-geologik sharoitida to'rtburchak kesimli lentasimon va osma temirbeton qoziqli poydevorlarning yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha sxematik GAT xaritalar seriyasini tuzish;

Nukus tumani sharoitida bino cho'kishi bo'yicha dala kuzatuvlarini o'tkazish, sonli hisoblarni bajarish, dala kuzatuvlari va bino cho'kishi bo'yicha sonli hisoblar natijalarini qiyosiy tahlil qilish;

GOST 31108-2020 portlandsement asosida tayyorlangan betonlarga nisbatan agressivlik darajasi bo'yicha gruntlarni muhandislik-geologik rayonlashtirish va Nukus tumani sharoitida sho'rlangan gruntlarda poydevorlarni loyihalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Nukus tumanining sho'rlangan tuproqlari va yer osti suvlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Nukus tumani sharoitida poydevorlarni loyihalashni muhandislik-geologik rayonlashtirish, Nukus tumanining gidrogeologik, muhandislik-geologik va iqlim sharoitlarida bino va inshootlar poydevorlarini samarali va xavfsiz loyihalash, ekspluatatsiya qilish hamda tuman yer osti suvlari sathini pasaytirish bo'yicha tavsiyalarni asoslash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada muhandislik-geologik izlanishlar amaliyotida qo'llaniladigan usullar, jumladan, binolarning cho'kishini tabiiy kuzatish, gruntlarning tarkibi va fizik-mexanik xossalarini laboratoriya tadqiqotlari fond materiallarini tizimlashtirish, GAT texnologiyalarini qo'llagan holda hududlarni muhandislik-geologik xaritalash, bino va inshootlar poydevorlarini hisoblashda qo'llaniladigan sonli va analitik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gruntlarning sho'rlanishi, grunt suvlari tarkibidagi sulfat, xlorid va gidrokarbonat tuzlari va gruntlarining muzlash chuqurligi bo'yicha GAT xaritalari seriyalari tuzilgan;

uzunligi 8,0 m gacha bo'lgan temirbeton qoziqli poydevorlar va 1,0 m kenglikdagi, 1,0 m chuqurlikdagi lentali poydevorlarning yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha bir qator muhandislik-geologik sxematik GAT xaritalari tuzilgan;

qurilayotgan binoning cho'kishi bo'yicha dala kuzatuvlari o'tkazilgan va dala kuzatuvlari natijalari "PLAXIS" kompyuter dasturida bajarilgan hisoblar natijalari bilan taqqoslanib, bir-biriga mosligi aniqlangan;

Nukus tumani gruntlarining betonlarga ta'siri bo'yicha agressivlik darajasini aks ettiruvchi sxematik GAT xaritasi tuzilib, Nukus tumani grunt suvlarining agressivligini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bino va inshootlarning beton yer osti konstruksiyalariga ta'siri bo'yicha gruntlarning agressivlik darajasini aniqlovchi gruntlarning yer osti suvlari sathigacha sho'rlanishining sxematik xaritalari tuzilgan;

Nukus tumanida 1 m chuqurlikda joylashgan gruntlarning hisobiy bosim qarshiligining sxematik xaritalari tuzilgan;

Nukus tumanida yer osti beton konstruksiyalariga yer osti suvlarining agressiv ta'sir darajasini aks ettiruvchi yer osti suvlarining sho'rlanish sxematik GAT xaritalari

tuzildi va yer osti suvlari sathini pasaytirish bo'yicha muhandislik-geologik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

3,0, 5,0 va 8,0 m. uzunlikdagi qoziqning yuk ko'tarish qobiliyati sxematik GAT xaritalari tuzilgan;

bosim intensivligi 300 KPa gacha bo'lganda tasmasimon poydevorlarning cho'kishining sxematik xaritalari yaratilgan;

gruntlarning muzlash chuqurligining sxematik xaritalari tuzilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligini, o'rganilayotgan hudud bo'yicha muhandislik-geologik xaritalarni tuzishni, binoning cho'kishini maxsus miqdoriy hisob-kitoblarini amalga oshirishni va yer osti suvlari harakatlarini hisob-kitob qilishni ishonchliligi ArsGIS va PLAXIS kompyuter dasturlari bilan ta'minlanganligi bilan, hamda, yer osti suvlari harakatlarini tekshirishda shaharning burg'i-quduqlar bilan qoplagan 153,6 km² hududidagi 116 ta burg'i quduqlaridan olingan gidrogeologik ma'lumotlariga va qoqiladigan qoziqlar va tasmasimon poydevorlar asosini cho'kishini, yuk ko'tara olish imkoniyatini hisoblashda 514 ta grunt namunalarning fizik-mexanik xossalari tahliliy ma'lumotlariga tayanganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Nukus tumani hududida bino va inshootlarni ishonchli, xavfsiz loyihalash va ekspluatatsiya qilishning muhandislik-geologik ilmiy asoslarini yaratish, Nukus tumani markazining qurilish bosh tarxini va tumanning qishloq xududlarida shaharsozlikni muhandislik-geologik o'zgachaliklarini hisobga olganda ishonchli rivojlantirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar Nukus tumanining sho'rlangan gruntlarida bino va inshootlarning poydevorlarini yanada ishonchli, iqtisodiy jihatdan samarali va xavfsiz loyihalash imkonini beradi, olingan natijalar esa Nukus tumanining bosh rejasini ishlab chiqishda va uni bosqichma-bosqich rivojlantirishda, bino va inshootlarni loyihalashning texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) bosqichida hamda yer osti suvlari sathini pasaytirish bo'yicha muhandislik tadbirlarini ishlab chiqishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nukus tumani sho'rlangan gruntlarida bino va inshootlar poydevorlarini loyihalashning o'ziga xosliklarini muhandislik-geologik asoslash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sho'rlangan gruntlar uchun hisoblangan turli o'lchamdagi tasmasimon va qoziqli poydevorlarning yuk ko'tarish qobiliyati va cho'kishi uchun tuzilgan Nukus tumani sho'rlanishining sxematik xaritalari, kompyuter GAT-sxematik xaritalari va kesimlari "KKgorselproekt" MCHJ loyiha instituti faoliyatiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 04-07/01-3785-son ma'lumotnomasi). Natijada, Nukus tumanidagi binolarni kapital ta'mirlash va rekonstruksiya qilishda ishonchli loyiha yechimlarini qabul qilish va hududdagi qurilish obyektlarini loyihalash, texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) vaqtini qisqartirish imkonini bergan;

PLAXIS kompyuter dasturi yordamida bajarilgan bino cho‘kishini hisoblash natijalarining dala kuzatuvlari bilan qiyosiy tahlili va Nukus tumanining turli muhandislik-geologik sharoitlari uchun tasmasimon va "plitali" poydevorlarning optimal o‘lchamlarini qabul qilish asoslari "Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastri" Davlat loyiha-qidiruv instituti Qoraqalpog‘iston filiali ("O‘ZGASHKLITI") faoliyatiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 04-07/01-3785-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Nukus tumanida muhandislik-geologik tadqiqotlar vaqtini qisqartirish va loyihalash tizimining samaradorligini oshirish imkonini bergan;

Nukus tumani hududida tuzilgan GAT kompyuter sxematik xaritalari va kesimlari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar "UzGIP" MCHJ Qoraqalpog‘iston filialida joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 6-dekabrda 04-07/01-3785-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Nukus tumani drenaj tizimini loyihalash samaradorligini oshiruvchi loyihaviy yechimlarni qabul qilish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 27 ta ilmiy ishlar chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 13 ta ilmiy maqola, jumladan 11 ta respublikada va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkaziladigan tadqiqotlarning dolzarbligi va unga bo‘lgan talab, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot ob‘yektini va predmetini tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustivor yo‘nalishlarga muvofiq kelishi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlar dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda gruntlar sho‘rlanishini o‘rganish sohasidagi hozirgi prinsiplar va talablar”** deb nomlangan birinchi bobida Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekiston hududida sug‘oriladigan yerlarning ikkilamchi sho‘rlanishi masalasi yoritilgan. Bu jarayon qadimiy sug‘orish tizimlarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, Turon tekisligida sug‘orish qadim zamonlardan beri mavjud. Biroq XX asrda paxta xom ashyosi ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida sug‘orish maydonlarining keskin oshirilishi gruntlarning sho‘rlanish jarayonini yanada kuchaytirgan.

Tabiiy sharoitda Turon tekisligining gruntlari cho‘l muhitiga xos tarzda ma’lum miqdorda tuzlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lsa-da, gidromorf gruntlarda sho‘rlanish jarayoni yanada faol kechgan. Sug‘orish miqyosining ortishi va drenaj tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi natijasida sho‘rlangan yerlar maydoni tobora kengayib bordi. 1990-yillarga kelib, mamlakatdagi sug‘oriladigan yerlarning qariyb 50 foizi turli darajada sho‘rlangan holatga kelgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sho‘rlanish jarayoni grunt hosil qiluvchi jinslarning tarkibidagi tuzlar miqdori, grunt suvlarining sathi hamda arid iqlim sharoiti bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar ushbu muammoni chuqur ilmiy asosda hal etish zarurligini belgilab beradi. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (PF–158, 2023-y.) hamda “Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” (PF–60, 2022-y.)da urbanizatsiya jarayonlari, qurilish xavfsizligi va muhandislik-geologik tadqiqotlarni kuchaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, “Aqlli qishloq” (Smart Village) konsepsiyasi doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus tumanida yangi turar joy massivlari qurilishi rejalashtirilgan. Shu bois, mazkur hududlarda gruntlarning sho‘rlanish darajasi va ularning poydevorlarga ta’sirini chuqur o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Nukus tumanida olib borilgan so‘nggi tadqiqotlar natijalari gruntlarning yuqori darajada sho‘rlanishi hamda grunt suvlarining agressiv ta’siri bino va inshootlar poydevorlarining muddatidan oldin ishdan chiqishiga olib kelayotganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, sulfatli sho‘rlanish beton konstruksiyalarni yemirib, ularning mustahkamligini sezilarli darajada pasaytiradi. Natijada ko‘plab temir-beton inshootlarning pastki qismlari yemirilgan bo‘lib, bu holat yer osti suvlarining yuqori minerallashuvi bilan bevosita bog‘liqdir.



1-rasm. Nukus tumani Alpamis ko‘chasidagi temir-betonli to‘siqning emirilish xarakteri (2025yil).

1-rasmda Nukus tumanining Aqmang‘it posyolkasida joylashgan temir-betonli to‘siqning yaroqsiz holga kelish xususiyati tasvirlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, beton 1,0 metr balandlikkacha yaroqsiz holga kelgan, shu bilan birga temir-beton to‘siqning yer ostidagi qismi esa buzilmagan. Bu holat devorning ishdan chiqqan qismida betonni yemiruvchi kimyoviy reaksiyalar kechishi uchun qulay sharoit mavjudligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning «Tuman gruntlarining shoʻrlanish jarayonlarining asosiy omillari» deb nomlangan ikkinchi bobida Nukus tumani Qoraqalpogʻiston Respublikasining markaziy qismida joylashgan boʻlib, 1968 yilda tashkil etilgan. Tuman maydoni 287,52 km², aholisi 51,883 kishini tashkil etadi. Hudud transport va sugʻorish tizimlari rivojlangan boʻlib, Amudaryo deltasining oʻng qirgʻogʻida joylashgani tufayli qishloq xoʻjaligi yetakchi tarmoq hisoblanadi.


Relifi va geologik tuzilishi. Tuman reliefi tekis boʻlib, mutlaq balandliklar 67,02–67,30 m oraligʻida. Geomorfologik jihatdan Amudaryo deltasining allyuvial-delta tekisligiga kiradi. Eng qadimgi qatlamlar yuqori boʻr yotqiziqlari, eng yosh qatlamlar esa Amudaryo kompleksining allyuvial hosilalaridan iborat. Geologik tuzilish paleozoydan tortib to toʻrtlamchi davrgacha boʻlgan yotqizilarni oʻz ichiga oladi. Muhandislik-geologik tadqiqotlar 8 metr chuqurlikkacha oʻtkazilgan boʻlib, chuqur qatlamlar boʻyicha maʼlumotlar asosan gidrogeologik ekspeditsiyalar natijalariga asoslanadi.

Iqlim sharoiti. Nukus tumani iqlimi keskin kontinental: yozda juda issiq, qishda esa sovuq. Oʻrtacha yillik havo harorati 11,6 °C, mutlaq maksimum 46,8 °C (2002-yil), minimum esa –28,5 °C (2006-yil) ni tashkil etadi. Soʻnggi oʻn yilliklarda oʻrtacha haroratning biroz oshishi, minimal haroratlarning esa pasayishi kuzatilgan. Yillik yogʻingarchilik kam boʻlib, 1989–2023 yillar oraligʻida kamayish tendensiyasi qayd etilgan. Shamollar asosan janubi-sharqiy yoʻnalishda esadi.

1-jadval

Havo harorati, °C			Grunt harorati, °C		Havoning nisbiy namligi, %		Oʻrtacha oylik yogʻingarchilik, mm		Gruntning 10 sm chuqurlikdagi harorati °C	
Maks yil	Min. yil	Oʻrtacha. yil	Maks. yil	Min. yil	Oʻrtacha	Min. yil	Maks yil	Min. yil	Maks yil	Min. yil
46,8 2002	–28,5 2006	13,3 2017	72 2010	–31 2010	54,2 2011	0,5 2008	17,4 1994	4,1 2023	35,8 2005	1,6 1995


2-rasmda havo haroratining vaqt boʻyicha chiziqli yaqinlashuv funksiyasi turi keltirilgan boʻlib, ushbu model asosida haroratning kelajakdagi oʻzgarishini prognozlash imkoniyati mavjud. Bunday yondashuv hudud iqlimining uzoq muddatli dinamikasini baholash va shoʻrlanish jarayonlariga iqlimiy omillarning taʼsirini tahlil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.



2-rasm. 1989-2023 yillar oralig'ida grunt yuzasining maksimal va minimal haroratining o'zgarish dinamikasi.

3-rasmda tahlil qilish natijasida 1989–2023 yillar oralig'ida grunt haroratining maksimal qiymatlari oshgan, minimal qiymatlari esa pasayganligi aniqlangan.

Bu holat so'nggi o'n yilliklarda iqlim isish jarayonining kuchayishi va grunt harorat rejimining o'zgarayotganligini ko'rsatadi. Bunday o'zgarishlar gruntlarning fizik-mexanik xususiyatlari hamda ularning sho'rlanish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



3-rasm. 1989-2023 yillar oralig'ida grunt haroratining 10 sm chuqurlikda o'zgarish dinamikasi.


Litologik tarkib. Hududda qurilishlar asosan allyuvial yotqizilarda amalga oshirilgan. Grunlar orasida irmoq yotqizilari (qum, supes) va qayir-ko'l yotqizilari (gil, suglinka) ustunlik qiladi. Bu yotqizilarning qalinligi 1–35 m gacha o'zgaradi. Ularning suv o'tkazuvchanligi va mexanik tarkibi har xil bo'lib, sho'rlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Grunt suvlarining gidrogeologik sharoiti. Tuman hududidagi grunt suvlarining sathi 0,5–4,0 m chuqurlikda joylashgan. Ular asosan Amudaryo va irrigatsiya tarmoqlaridan filtratsiya yo'li bilan to'yinadi. Amudaryo yaqinida suvlar kuchsiz sho'rlangan (1,1–1,5 g/l), delta chekkasida esa minerallashuv 5 g/l va undan ortiq.

Suvlarning asosiy harakat yo'nalishi daryo oqimiga mos keladi. Irrigatsiya tizimlarining samarasizligi va sug'orish suvlarining infiltratsiyasi natijasida grunt suvlarining sathi ko'tarilib, ikkilamchi sho'rlanish jarayonlari kuchaymoqda.

4-rasmda 1990–2018 yillar oralig‘ida grunt suvlari sathining minimal va maksimal darajalari keltirilgan. Grunt suvlari asosan sug‘orish kanallaridan suvning filtrlanishi hamda qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish jarayonlari natijasida shakllanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, er osti suvlarining eng past sathi Amudaryo daryosining suv sarfi eng kam bo‘lgan 2001 yilda kuzatilgan.

Bundan tashqari, kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, er osti suvlarining minimal sath ko‘rsatkichlari odatda vegetatsiya davrida, ya‘ni qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish faol amalga oshiriladigan mavsumda qayd etiladi.



4-rasm. Nukus tumani grunt suvlarining maksimal va minimal sathi.

Muhandislik-geologik jarayonlar. Amudaryo deltasining zamonaviy geodinamik jarayonlari daryo suvliqligi bilan chambarchas bog‘liq. XIX asrda mavjud bo‘lgan ko‘plab irmoqlar va ko‘llar bugungi kunda yo‘qolib, ularning o‘rnida xo‘jalik yerlari va aholi manzillari paydo bo‘lgan. 1960-yillardan boshlab daryodan sug‘orish maqsadida olingan suvlar oqimini kamaytirgan, natijada yer osti suvlarining minerallasuvi ortgan.

Sug‘orish tizimlarida suvni tejaydigan texnologiyalar yetarlicha qo‘llanmagan tufayli tuproqlarning haddan tashqari namlanishi kuzatiladi. Bu jarayonlar grunt suvlarining ko‘tarilishi va sho‘rlanishini kuchaytiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sug‘orilmaydigan maydonlarda eng sho‘rlangan gruntlar 3–10 m chuqurlikda joylashgan.


Dissertatsiyaning «**Poydevorlar cho‘kishini kuzatishning muhandislik-geologik natijalarini hisob-kitoblar bilan qiyoslab tahlil qilish**» deb nomlangan uchinchi bobida Nukus tumanida dastlabki besh qavatli turar-joy binolari 2021 yilda qurila boshlandi. Shu vaqtgacha ushbu hududda ko‘p qavatli binolar asoslarining muhandislik-geologik sharoitlari yetarlicha o‘rganilmagan edi. Rayon gruntlarining sho‘rlanganligi va ularning fizik-mexanik xususiyatlarining yetarli tahlil qilinmaganligi sababli, loyihalash jarayonida poydevorlar odatda ortiqcha zaxira bilan loyihalanadi. Bunday holatlar natijasida ayrim hollarda plitali poydevorlar zarurat tufayli tanlanadi.

Tadqiqot ishlari Nukus tumanining Aqmang‘it posyolkasida joylashgan besh qavatli turar-joy binosi misolida olib borildi. Binoning umumiy balandligi 18 m, rejadagi maydoni 252 m² ni tashkil etadi. Devorlari g‘ishtli, qoplama va to‘siqlarda

yaxlit antiseysmik kamarlar oʻrnatilgan. Poydevor chuqurligi — 1,0 m, turi — plitali, balandligi — 0,5 m.

Muhandislik-geologik tadqiqotlar natijalariga koʻra, oʻrganilgan 8 m. chuqurlikdagi qatlamlar asosan lyossimon suglinkalar va changsimon qumlar bilan ifodalanadi (5-rasm). Tadqiqot oʻtkazilgan davrda (2018-yil fevral) grunt suvlari yer sathidan 1,5–1,7 m chuqurlikda aniqlangan. Muhandislik-geologik kesim ikki asosiy qatlamdan iborat:

1. Oʻta plastik suglinkalar;
2. Suvga toʻyingan changsimon qumlar.




5-rasm. Bino asosining litologik kesimi.

PLAXIS geotexnik dasturiy taʼminoti grunt modellarining keng toʻplamini taqdim etadi, ulardan turli muhandislik hisob-kitoblarini amalga oshirishda foydalaniladi. Yakuniy elementlar usuliga asoslangan miqdoriy modellashtirish oddiy muhandislik hisob-kitoblaridan farq qiladi. Bunda “grunt modeli” tushunchasi — yaʼni gruntning turli holatlarini ifodalovchi bir nechta matematik tenglamalar majmuasi — asos qilib olinadi.

Masalan, eng oddiy Mor–Kulon modeli ikki asosiy tenglamadan iborat: Gukning elastiklik qonuni (birinchi tenglama) va Mor–Kulonning chegaraviy holat tenglamasi (ikkinchi tenglama). Shu bois, hatto ushbu soddalashgan model ham choʻkish va mustahkamlikni aniqlashda oddiy muhandislik hisob-kitoblariga nisbatan ancha murakkabdir. Chunki bu yondashuv yordamida chegaraviy holatni hisoblashda deformatsiya xususiyatlarini, mustahkamlik tavsiflarini esa deformatsiyalar orqali aniqlash imkoniyati yaratiladi.

PLAXIS dasturiy kompleksi tarkibidagi asosiy grunt modellarining qo‘llanilishi gruntni deyarli barcha turlarini — qoyali, dispers yopishqoq (gilli) va dispers qumoq (qumli) muhitlarni — modellashtirish imkonini beradi.

Modellarning geotexnik masalalarni hal etishdagi qo‘llanish sohasini qisqacha ifodalovchi sxema 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm. Plitali poydevor markazi bo‘ylab chuqurlik bo‘yicha gruntni vertikal cho‘kishining o‘zgarishi. Plitali poydevor ostidagi bosim $R = 77$ kPa.

Hisob-kitoblar jarayonida 2 va 3-jadvallarda keltirilgan gruntni va poydevor materiallarining fizik-mexanik xususiyatlari qabul qilindi.

Poydevor ostidagi bosim bir tekis taqsimlangan yuk ko‘rinishida qo‘llanildi. Har bir yuk bosqichida gruntdagi kuchlanish holati hamda deformatsiya qiymatlari aniqlanib bordi.

2 -jadval

Gruntni fiziko-mexanik xususiyatlari

Nomi	O‘lchov bir.	Suglinka	Qum
Grunt zichligi	t/m^3	1,95	1,93
G‘ovaklilik koeffitsienti	b/r	0,744	0,79
Tabiiy namlik	Ulush bir.	0,254	0,297
Oquvchanlik chegarasidagi namlik	Ulush bir.	0,351	-
YOyilish chegarasidagi namlik	Ulush bir.	0,226	-
Plastiklik soni	Ulush bir.	0,126	-
Oquvchanlik chegarasi	b/r	0,29	-
Suvga to‘yinish holatida solishtirma tortishish	kPa	13,3	1,0
Suvga to‘yinish holatida ichki ishalanish burchagi	Gradus	33	35
Suvga to‘yinish holatida deformatsiya moduli	Mpa	7,2	11,5

Plita materialining fizik-mexanik xossalari

Tavsifi (belgilanishi)	O'l. bir.	Qiymati
Qayishqoqlik modul (E_{ref})i	kN/m ²	29000000
Puasson koeffitsienti (ν)	-	0,2
Material zichligi (g_{sat})	kN/m ³	24,0
Ekvivalent qalinlik (d)	m	0,5

7-rasmda bino joylashgan maydonning kosmik tasviri berilgan bo'lib, unda cho'kish kuzatuv nuqtalari joylashuvi ko'rsatilgan. Kuzatuv jarayonida bino poydevoriga reperlar o'rnatilib, ular orqali nivelir yordamida cho'kish o'lchovlari olib borildi. Natijalar uchta reperda deyarli bir xil cho'kish qiymatlarini ko'rsatgan.



7-rasm. Qurilish jarayonidagi cho'kishlar yuzasidan kuzatuvlar olib borilgan rayondagi bino joylashgan er (Nukus tumani, Aqmang'it shaharchasi).

Dissertatsiyaning «**Nukus tumanidagi sho'rlangan hududlarni muhandislik-geologik rayonlashtirish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida Nukus tumani hududida gruntlarning sho'rlanish darajasini aniqlash va baholash maqsadida mavjud muhandislik-geologik ma'lumotlar, laboratoriya tahlillari hamda texnik hisobotlar chuqur o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida 1:50 000 masshtabdagi sho'rlanishning muhandislik-geologik sxematik xaritalari tuzildi.

Tadqiqot ishlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpoq filiali, Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti Geologiya laboratoriyasi va boshqa tegishli tashkilotlar materiallari asosida olib borilgan. Tadqiqot maydoni 325 km² ni tashkil etib, 174 ta burg'i quduqlar kesimida gruntlarning sho'rlanish darajasi tahlil qilindi. Hisob-kitoblar SHNK 1.02.09-20 "Qurilish uchun muhandislik-geologik tadqiqotlar" me'yorlariga muvofiq amalga oshirildi.

Sho‘rlanish turlari V.M. Bezruk, Yu.L. Motilev va A.I. Grot tasniflariga asosan, tuzlarning umumiy miqdori esa 4 va 5-jadvallardagi mezonlar asosida aniqlangan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Nukus tumani gruntlarining asosiy qismini xloridli sho‘rlanish turi tashkil etadi. Ayrim uchastkalarda sulfat-xloridli gruntlar ham uchraydi. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha, Doslik kanalining chap qirg‘og‘idagi gruntlarning sho‘rlanish darajasi o‘ng qirg‘oqqa nisbatan 3–10 baravar yuqori. Bu holat hududda samarali drenaj tarmog‘ining yo‘qligi hamda grunt suvlari sathining ko‘tarilishi bilan izohlanadi.

4-jadval

Gruntlarning sho‘rlanish turini aniqlash (V.M. Bezruk, Yu.L. Motilev, A.I. Grot va b. bo‘yicha)

Oson eriydigan tuzlar bilan sho‘rlanish	Cl/SO ₄ nisbati, mg-ekv.
Xloridli	2dan ortiq
Sulfat-xloridli	2,0-1,0
Sulfatli	1,0-0,3
Xlorid-sulfatli	0,3dan kichik


5-jadval

Tuzning umumiy miqdori bo‘yicha sho‘rlanish darajasini aniqlash

Grunt	Tuzlarning umumiy ulushi,%				Gruntli marzani barpo qilishga yaroqlilik
	Xloridli va sulfat-xloridli sho‘rlanish		Sulfatli, xlorid-sulfatli va sodali sho‘rlanish		
	IV	V	IV	V	
Kam sho‘rlangan	0,3–1,0	–	0,3–0,5	–	Yaroqliy
O‘rtacha sho‘rlangan	1–5	5–8	0,5–2	2–5	>
Kuchli sho‘rlangan	5–8	8–10	2–5	5–8	Qo‘shimcha choralar ko‘rilganda yaroqli
O‘ta kuchli sho‘rlangan	>8	>10	>5	>8	

Tadqiqot jarayonida gruntlarning xloridli, sulfatli va gidrokarbonatli tuzlar miqdori bo‘yicha alohida muhandislik-geologik xaritalar tuzildi. Ushbu xaritalar gruntlarning betonga nisbatan agressivlik darajasini baholash, shuningdek, meliorativ va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini rejalashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.


O‘tkazilgan tahlillar natijasida ayrim hududlarda xlorid tuzlarining konsentratsiyasi 11 380 mg/kg gacha yetishi aniqlanib, bu gruntlarning kuchli sho‘rlangan ekanligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar asosida tuzlarning tarkibi, tarqalish xususiyatlari hamda ularning hudud bo‘yicha o‘zgarishini aks ettiruvchi bir qator tematik xaritalar ishlab chiqildi.



8-rasm. Nukus tumani gruntlari sho‘rlanishining sxematik xaritasi (grunt suvlari sathigacha sho‘rlanishning miqdoriy tavsifi).

Masshtab 1:50,000.

Tuzuvchilar: I.K.Aimbetov, B.K.Iskanderov, 2024 yil. 1-burg‘i quduqlar; 2-suv yo‘li; 3-avtomobil yo‘li; 4- Nukus tumani chegarasi; 5-suv; 6- sho‘rlanmagan; 7-kam sho‘rlangan; 8 – o‘rtacha sho‘rlangan; 9 – kuchli sho‘rlangan; 10-o‘ta kuchli sho‘rlangan.



9-rasm. Nukus tumani grunt suvlarining suvda eruvchan tuzlar bilan sho‘rlanishining 1: 50 000 masshtabdagi sxematik xaritasi

Tuzuvchilar: I.K. Aimbetov, B. K.

Iskenderov, 2024. 1 - burg‘i quduqlar; 2 - suv yo‘llari; 3 - avtomobil yo‘li; 4-Nukus tumani chegarasi; 5-suv; 6 – 0-1%; 7 – 1-3%; 8 – 3-8 g/l; 9 – 8-32,5 g/l.

Nukus tumanida binolarning poydevorlari uchun asosan GOST 10178-X5 portlandssement asosidagi beton turlari qo‘llaniladi. Gruntlarning ushbu betonlarga nisbatan agressivlik darajasini baholash maqsadida mavjud ma’lumotlar asosida sxematik xarita va grafik tuzildi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, tuman gruntlarining 47 foizi yuqori agressiv, 38 foizi o‘rta va engil agressiv, faqat 15 foizi agressiv bo‘lmagan turga mansubdir. Demak, hudud gruntlarining 85 foizi beton konstruksiyalarga ma’lum darajada tajovuzkor ta’sir ko‘rsatadi.

Eng agressiv maydonlar drenaj tarmog‘i mavjud bo‘lmagan va intensiv sug‘orish ishlari olib boriladigan hududlarda joylashgan. Grunt suvlari sathining ko‘tarilishi natijasida tuzlarning yuqoriga ko‘chishi sodir bo‘lib, bu poydevorlar atrofi gruntlarining sho‘rlanishini kuchaytiradi.

Natijada, Nukus tumanining shimoli-gʻarbiy qismi eng agressiv gruntlarga ega boʻlib, bu joylarda beton inshootlarni himoyalash choralari koʻrish zarurligi aniqlangan.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, gruntlardagi suvda eriydigan tuzlar miqdori 3% gacha boʻlsa, ular mustahkamlik va deformatsiya koʻrsatkichlariga sezilarli taʼsir qilmaydi. Shu sababli, amaldagi qurilish qoidalarida tuz miqdori 3% gacha boʻlgan gruntlarda deformatsiya moduli, ichki ishqalanish burchagi va nisbiy yopishqoqlik belgilangan.

12 metrgacha boʻlgan chuqurlikdagi poydevorlar taʼsiri zonasida shoʻrlanish 3% dan oshmaydi. Shu asosda, Nukus tumanida qoziqli va tasmasimon poydevorlarning muhandislik-geologik rayonlashtirish sxemalari tuzildi.

Tumandagi binolar asosan tasmasimon poydevor konstruksiyasiga ega boʻlib, poydevor chuqurligi 1 m, taglik kengligi esa 1,0–1,6 m oraligʻida hisoblandi. Yuk koʻtarish qobiliyati 48 nuqtada baholangan va xaritalar 1:50 000 masshtabda tuzilgan. Qizil rang eng past bosim qiymatlarini, masalan, Uzunkoʻl va Tokimbet qishloqlarini koʻrsatadi. Maksimal bosim 300 kPa boʻlganda, maksimal choʻkish 150 mm, bu esa koʻp qavatli gʻishtli binolar uchun meʼyoriy qiymatga mos keladi.

Uzunligi 3–8 m va koʻndalang kesimi 25×25, 30×30, 40×40 sm boʻlgan qoziqlarning yuk koʻtarish qobiliyati ham 48 nuqtada hisoblandi. Sxematik xaritalar yuk koʻtarish qobiliyatining joylashuvga bogʻliqligini koʻrsatadi: markaziy va janubi-sharqiy hududlarda minimal, shimoliy va shimoli-gʻarbiy hududlarda maksimal. Masalan, 3×25×25 sm qoziqlar 40–240 kN, 40×40 sm boʻlganlar 110–580 kN yuk koʻtaradi.

Gruntlarning agressiv taʼsirini kamaytirish uchun drenaj tizimini loyihalash zarur. Hududning litologik gorizontal kesimlari 8 m chuqurlikka qadar qurilgan. Binolarni himoya qilish uchun poydevorlarning devorga yaqin va qatlamli drenaj konstruksiyalari qoʻllaniladi.

Poydevor loyihalashda muhim masala – poydevor tagining chuqurligini aniqlash boʻlib, buning mezoni gruntning muzlash chuqurligi hisoblanadi. Amaldagi meʼyorlarga (KMK 2.01.01-94) muvofiq, Qoraqalpogʻistonda gruntlarning mavsumiy maksimal muzlash chuqurligi 50 yilda 1 marta – 1,38 m, 10 yilda 1 marta – 1,17 m. Koʻp yillik kuzatuv maʼlumotlari boʻlmagan taqdirda, muzlash chuqurligi issiqlik-texnik hisob-kitoblar bilan aniqlanadi.

Nukus tumani uchun gruntlarning muzlash chuqurligi sxematik xaritalari tuzilgan. Meteorologik maʼlumotlar: 1973 yildagi SHNK 2.01.01-22 va 2008 yildagi kuzatuvlar asosida tahlil qilingan. Tahlil shuni koʻrsatdiki, 2008 yilda manfiy haroratlar SHNK 2.01.01-22 ga nisbatan oshgan, shu bilan gruntlarning muzlash chuqurligi ham ortgan. Sovuq oylardagi manfiy haroratlarning oʻrtacha qiymatlari quyidagicha 5-jadvalda koʻrsatilgan:

6-jadval

Yillar	YAnvar	Fevral	Dekabr	Oʻlchovsiz koeffitsient M_t
2008	-15,6	-2,9	-3,8	22,3
1973 (SHNK 2.01.01-22)	-3,7	-1,7	-1,6	7

Gruntlarning muzlash chuqurligi va sho‘rlanishini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, sho‘rlanish darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda muzlash chuqurligi ham ortadi. Shu bilan birga, gruntlarning agressivligi muzlash chuqurligi oshishi bilan kuchayadi. Eng katta muzlash chuqurligi supesli hududlarda kuzatiladi, bu esa grunt suvining yer yuzasiga ko‘proq ko‘chishi bilan izohlanadi. Shu asosda tuzilgan sxematik xaritalar poydevorlarni loyihalash va texnik-iqtisodiy asoslashda, xususan chuqur bo‘lmagan poydevorlarni dastlabki loyihalash bosqichida samarali qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA

1. Sho‘rlangan gruntlarning muhandislik-geologik xususiyatlari bo‘yicha mavjud tadqiqotlar natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, eruvchan tuzlar gruntlarning fizik-mexanik xususiyatlariga ta‘sir qiladi va ularning yer osti temirbeton konstruksiyalariga ta‘siri bo‘yicha agressivligini oshiradi.

2. Meteorologik ma‘lumotlar Nukus tumanini keskin kontinental iqlim va yog‘ingarchilik kam bo‘lgan hudud sifatida tavsiflaydi. Yog‘ingarchilikning kamligi va sug‘oriladigan suvlardan nooqilona foydalanish yer osti suvlarining sho‘rlanishini kuchaytiradi.

3. Nukus tumani tuproqlari va yer osti suvlari xlorid va sulfat tuzlari bilan sho‘rlangan, bu esa erta yemirilishga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tumandagi tuproqlarning 47 foizi yuqori agressiv, 38 foizi o‘rtacha va kuchsiz agressiv, atigi 15 foizi agressiv emas. Shunday qilib, hududning 85% gruntlari beton konstruksiyalarga ma‘lum darajada agressiv ta‘sir ko‘rsatib, poydevorlar bino va inshootlarning yer osti qismlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

4. Tasmason poydevor cho‘kindilarini muhandislik-geologik rayonlashtirish shuni ko‘rsatadiki, eng katta cho‘kindilar Oqmang‘it qishlog‘i va Nukus shahri chegarasida kuzatiladi. Bu hududlardagi grunt qatlamlarining deformatsiyalanish xususiyatlari pastligi bilan izohlanadi.

5. Turli uzunlikdagi va ko‘ndalang kesimli osma temirbeton qoziqlarning yuk ko‘tarish qobiliyatining muhandislik-geologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, minimal yuk ko‘tarish qobiliyati hududning markaziy va janubi-sharqiy qismlarida, maksimal yuk ko‘tarish qobiliyati esa Nukus tumanining shimoliy, shimoli-sharqiy va shimoli-g‘arbiy qismlarida kuzatiladi.

6. Muzlash zonasida joylashgan gruntlarning litologik tarkibiga bog‘liq holda muzlashning maksimal chuqurligi 1,2-1,32 m ni tashkil etadi.

7. Sho‘rlanish va muzlash chuqurligi xaritalarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, eng katta sho‘rlanish muzlash chuqurligi maksimal bo‘lgan va qumoq qatlamlar ustunlik qiladigan hududlarda kuzatiladi. Muzlash chuqurligi ortishi bilan gruntlarning betonga nisbatan agressivligi ham ortadi.

8. Nukus tumanining muhandislik-geologik sharoitida binolarni ishonchli loyihalash va ekspluatatsiya qilish uchun devor oldi va qatlamli drenaj tizimiga ega poydevorlarni loyihalash, tuman kollektor-drenaj tizimi hajmini oshirish zarur.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.31/2025.27.12.GM.05.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ИНСТИТУТЕ ГИДРОГЕОЛОГИИ И ИНЖЕНЕРНОЙ ГЕОЛОГИИ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ИНСТИТУТ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК КАРАКАЛПАКСКОГО
ОТДЕЛЕНИЯ АКАДЕМИИ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

ИСКЕНДЕРОВ БАХТИЯР КАУЕНДЕРОВИЧ

**ОСОБЕННОСТИ ИНЖЕНЕРНО-ГЕОЛОГИЧЕСКОГО ОБОСНОВАНИЯ
ПО ПРОЕКТИРОВАНИЮ ФУНДАМЕНТОВ ЗДАНИЙ И СООРУЖЕНИЙ
НА ЗАСОЛЕННЫХ ГРУНТАХ НУКУССКОГО РАЙОНА**

04.00.04 – Гидрогеология и инженерная геология

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2026

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Около 25% почв в мире сильно засолены, что в основном наблюдается в районах с засушливым климатом. В последние годы частое повторение засушливых явлений усиливает процесс засоления грунтов. В результате проблема засоления во всем мире привлекает особое внимание в различных областях, включая инженерную геологию и строительство. Увеличение строительства зданий и сооружений по инженерным решениям, выбор наиболее оптимальных проектных решений по методам реализации в соответствии с природными условиями, вопросы составления проектов инженерно-геологических изысканий являются важным фактором устойчивого социально-экономического развития конкретного региона.

В мире ведутся научно-исследовательские работы по вопросам инженерно-геологического обоснования при проектировании фундаментов зданий и сооружений, в частности, обеспечению прочности и долговечности строительства на засоленных грунтах, оценке влияния солей на грунт и строительные материалы, а также разработке методов защиты от агрессивной среды. В связи с этим особое внимание уделяется тщательному проектированию сооружений на засоленных грунтах, выбору оптимальных типов фундаментов и обеспечению их долгосрочной устойчивости.

В нашей республике проводятся широкомасштабные исследования, направленные на глубокое изучение инженерно-геологических и гидрогеологических условий при проектировании фундаментов строящихся зданий и сооружений, и в этих направлениях достигаются определенные результаты. В Указе Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года No ПП-158 "О Стратегии "Узбекистан 2030"² определены важные задачи по "комплексному развитию регионов, реализации стратегии урбанизации, повышению уровня обеспечения населения доступным жильем." В связи с этим важно проводить научные исследования в районах с засоленными и сложными грунтами, обеспечивать устойчивость фундаментов, защищать конструкции от агрессивной среды, безопасно планировать строительные работы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан No УП-158 от 11 сентября 2023 года "О повышении культуры рационального водопользования и эффективности водопользования в республике," No УП-183 от 13 октября 2025 года "О мерах по дальнейшему ускорению процесса цифровизации и устойчивому развитию водной отрасли," No УП-11 от 27 января 2025 года "О мерах по дальнейшему развитию сферы жилищного строительства, совершенствованию механизмов регулирования процесса долевого строительства жилых и нежилых объектов," а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

²Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года No ПП-158 "О Стратегии "Узбекистан 2030".

Соответствие исследований приоритетам республиканского научно-технического развития. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VIII "Науки Земли (геология, геофизика, сейсмология и переработка минерального сырья)."

Степень изученности проблемы. Научные исследования, посвященные решению проблем строительства зданий и сооружений на засоленных почвах, широко изучались известными научными центрами и высшими учебными заведениями мира. В частности: вопросами влияния солей на физико-механические свойства грунтов и преждевременного разрушения подземных бетонных конструкций занимались ученые и инженеры-геологи зарубежных стран, такие как Alonso E.E., Olivella S., Agudo E., Mees F., Jacobs P., Angeli M., Bigas J.P., Benavente D., Cheng J., Shen J., Du R. и Francisca F.M., A.Monshi, Б.Б.Бакенов, Н.В.Бойко, У.Р.Джумашев, З.Г.Тер-Мартirosян, В.П.Петрухин. В Узбекистане Г.А.Мавляновым, Е.Д.Рождественским, Л.Б.Смолиной, С.М.Касимовым, И.К.Аимбетовым, А.Д.Каюмовым, Л.З.Шерфетдиновым, И.А.Агзамовой, Р.М.Худойкуловым и другими, в результате исследований разработана технология моделирования инженерно-геологических и гидрогеологических условий для территории Каракалпакстана.

В некоторых исследованиях, направленных на изучение инженерно-геологических свойств засоленных грунтов, расположенных в северных районах Каракалпакстана, разработаны карты-схемы, отражающие степень засоления, тип засоления и физико-механические свойства грунтов. Однако анализ существующих инженерно-геологических исследований, проведенных на примере Нукусского района, показывает, что в пределах территории района не проводились детальные систематические исследования, основанные на современных компьютерных технологиях, а также наблюдения за осадками зданий в естественных условиях. В связи с этим оценка инженерно-геологических свойств исследуемой территории и изменения состояния подземных вод, определение физико-механических свойств грунтов, инженерно-геологическое районирование территории, районирование территории по степени удобства инженерно-геологического обоснования фундаментов сооружений позволяет решить эти задачи.

Связь диссертационного исследования с планами научных исследований научно-исследовательского учреждения, в котором выполнена диссертация. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с планом научно-исследовательских работ Каракалпакского научно-исследовательского института естественных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан в рамках фундаментального проекта "Изучение физико-механических свойств грунтов Каракалпакстана, создание инженерно-геологических основ для строительства зданий и сооружений на засоленных грунтах Каракалпакстана" (2021-2024 гг.).

Цель исследования. Инженерно-геологического районирование проектирования фундаментов с учетом засоленности грунтов, грунтовых вод и климатических условий Нукусского района Каракалпакстана.

Задачи исследования заключаются в следующем:

- Сбор фондовых материалов их систематизация и составление серии схематических ГИС-карт засоленности грунтов, грунтовых вод, и глубины промерзания грунтов Нукусского района;

